



YOSHLAR HUQUQIY ONGI VA HUQUQIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH: HOZIRGI DAVR TALABI

Avazov Baxtiyor Djabbarovich

O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi ixtisoslashtirilgan o'quv
markazi jamoat havfsizligi va huquqiy tayyorgarlik sikli
o'qituvchisi, qurolli kuchlar xizmatchisi,
podpolkovnik

Tel. 90 240 17 67

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21785123>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 27-iyul 2026 yil
Ma'qullandi: 29-iyul 2026 yil
Nashr qilindi: 31-iyul 2026 yil

KEYWORDS

Huquqiy ong, huquqiy madaniyat, yoshlar, huquqiy ta'lim, huquqiy ma'rifat, qonun ustuvorligi, demokratik jamiyat, ijtimoiy barqarorlik, globallashuv, fuqarolik jamiyati, adolat, erkinlik, demokratiya. xalqaro tajriba.

ABSTRACT

Maqolada erkin fuqarolik jamiyatini barpo etishda huquqiy ta'lim muhim mezonlardan biri ekanligi asoslangan. Fuqarolarning huquqiy madaniyatini shakllantirishda olib borilayotgan islohotlarning samarasi tahlil qilinadi. Shuningdek, yoshlar ongida huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantirishning ijtimoiy ahamiyati hamda bu jarayonning zamonaviy talablarga mos ekanligi atroflicha tahlil qilingan. Zero, yosh avlodning huquqiy bilim va savodxonligi, ularda fuqarolik mas'uliyati va qonuniylikka sodiq munosabatning shakllanishi — jamiyatda qonun ustuvorligi, demokratik qadriyatlar va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga egadir.

Yoshlar — jamiyatning strategik salohiyatini belgilaydigan asosiy qatlam sifatida, ularning huquqiy ongi va madaniyati orqali davlatning huquqiy tizimi mustahkamlanadi, demokratik institutlar rivojlanadi. Yoshlarning huquqiy madaniyatini yanada yuksaltirish va ularda faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishda ta'lim muassasalaridagi ma'naviy-ma'rifiy ishlarni samarali tashkil qilish va o'qituvchilar yillik murabbiylik rejalarini tuzishga alohida e'tibor berish lozimligi, axborot soatlarida huquqiy tarbiyaga doir tadbirlar, davra suhbatlarini ko'proq tashkil qilish va ularni samarali hamda ta'sirchan o'tkazish samarali natija berish lozim. Fuqarolarda huquqiy madaniyatning yuksak darajada bo'lishi huquqiy davlatning o'ziga xos xususiyatidir. Bozor iqtisodiyotini shakllantirishda huquqiy madaniyatni oshirish uning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Shu bilan birga huquqiy madaniyat saviyasi qabul qilingan qonunlar soni bilan emas, balki ushbu qonunlarning barcha darajada ijro etilishi bilan belgilanadi [1]. Ushbu muhim ishda barcha fuqarolarda qonunlarga va normativ-huquqiy hujjatlarga nisbatan chuqur hurmat hissini tarbiyalash alohida ahamiyatga egadir. Zero, huquqiy normalar fuqarolar ongiga singgan va ular amal qilgan taqdirdagina yashaydi va ruyobga chiqadi. Mazkur yo'nalishda olib borilayotgan islohotlar, albatta, xalqimiz manfaati, ularning farovon hayoti va biz yoshlarning kelajagimiz uchun xizmat qilmoqda. Islohotlarning mazmun-mohiyatini keng jamoatchilikka ochiq-oydin yetkazib berish, bularni xalqimiz ongiga singdirish masalasi muhim vazifa hisoblanadi. Faol fuqarolik pozitsiyasi nima degan savolga javob beradigan bo'lsak, «O'zbek tilining izohli lug'ati»da «faol» (arabcha «harakat qiluvchi,

ta'sirchan») so'ziga quyidagicha ta'rif berilgan: 1) biror g'oyaviy harakat yoki ishga g'ayrat bilan, astoydil kirishadigan, ishchan; 2) biror jamoaning ijtimoiy hayoti, faoliyatida astoydil, berilib ishlaydigan, jamoatchi; 3) harakatchan, ko'p harakat qiladigan.

Yoshlarda faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish – har bir bolada o'z xalqining tarixi, ma'naviy qadriyatlari, vatanimizning imkoniyatlari va istiqbolini bilish va qadrlash, undan faxrlanish, yurt tinchligi, Vatan ravnaqi va xalq farovonligi uchun daxldorlikni his qilish, o'z huquqi bilan birgalikda burch va majburiyatlarini yaxshi bilish hamda ularni to'laqonli amalga oshirish, har qanday holatda ham milliy manfaatlarni himoya qila olish fazilatlarini tarbiyalash demakdir. Yoshlarning qonunga itoatkorligi ularning yuksak huquqiy onglik, jamiyat va davlat manfaatlarini chuqur tushunib yetib, ijtimoiy burch, davlat va jamiyat oldidagi javobgarlik tuyg'ularida namoyon bo'ladi. Yoshlar qonun me'yorlariga jazolanishdan qo'rqib emas, balki ixtiyoriy ravishda amal qilishlari zarur. Bu ularning ichki e'tiqodlariga aylanmog'i lozim. Qonunlarga rioya qilish odati chuqur anglangan ehtiyoj bo'lmog'i kerak. Buning uchun yoshlarda huquqiy madaniyatni yuksaltirish lozimdir. Huquqiy madaniyat tushunchasi jamiyat ma'naviy hayoti yangilanishining murakkab va ko'p qirrali hodisasidir. Shu o'rinda huquqiy ong va huquqiy madaniyat o'zi nima degan savolga oydinlik kiritib o'tsak. Huquqiy ong – qisqacha qilib aytganda huquq va qonunchilikka oid odamlarning tasavvurlari, ularning his-tuyg'ulari, amaliy tajribalar ta'sirida paydo bo'lgan huquqqa nisbatan munosabatini ifodalaydi [2]. Huquqiy madaniyat esa – fuqarolarning davlat va huquq haqidagi muhim bilimlarni egallab olishi, amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar haqidagi tushunchalarini talqin qila olishi hamda ulardan to'g'ri foydalana olishidir [3].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. Har bir fuqaro, eng avvalo, Konstitutsiyani yaxshi bilishi, undagi normalarni o'rganishi, o'zining huquqi, burchi va majburiyatlarini to'la anglashi va ularni hayotda qo'llay olishi kerak. Yuksak huquqiy madaniyatni shakllantirish bo'yicha davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bu aholini huquqiy axborot bilan ta'minlash, ilmiy-ommabop yuridik adabiyotlar nashr qilinishi va tarqatilishini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashdir. Huquqiy axborotning hamma uchun ochiqligi esa bu sohadagi siyosatning asosiy prinsiplaridandir. Yoshlardagi huquqiy madaniyatni oshirish fuqarolik jamiyatini shakllantirishda muhim omil bo'lib sanaladi. Ularning huquqiy madaniyatini shakllantirish avvalo, maktabdan boshlanadi. Har bir o'quvchi ongiga o'z huquqlaridan oqilona foydalana olish layoqatini singdirish asosiy vazifamizdan biridir.

Huquqiy madaniyat fuqarolar va turli ijtimoiy guruhlar, qatlamlarning jamiyatda o'rni va munosabatlariga doir turli xil qarashlari, tasavvurlari, g'oyalari qonuniy asoslarining ifodasidir. Huquqiy madaniyat huquqqa doir qonuniy asoslarga mos holda uning madaniyatda ifodalanishidir; belgilangan huquqiy me'yor va qonunlarga mos holdagi faoliyat, qarashlar majmuidir, u madaniyatni huquqiy jihatdan kafolatlaydi, uning qonuniy asosi bo'lib xizmat qiladi. Huquqiy madaniyat qonunlarni madaniyat orqali ifodalanishi yoki madaniyatni qonunga mos namoyon bo'lishi, huquqqa doir qarashlar, tasavvurlar majmuidir. Kuchli fuqarolik jamiyatiga erishish uchun fuqarolar jumladan, yoshlar o'z huquq va erkinliklari bilan birga burch va majburiyatlarini yaxshi bilishlari zarur. Zero, inson huquqi va asosiy erkinliklari xalqaro huquqning yetakchi tamoyillari sirasiga kiradi. Shu sababli, bugungi rivojlangan dunyoda har bir davlat inson huquq va erkinliklari, xavfsizligi, yashash sharoitini ta'minlash borasidagi xalqaro miqyosda qabul qilingan hujjatlarni ratifikatsiya qilgan. Bu hujjatlarga

og'ishmay amal qilish esa fuqarolarning huquqiy madaniyati qay darajada shakllanganiga bog'liq. Oliy ta'lim muassasalarining ma'naviy ma'rifiy ishlari jarayonida yoshlarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish muammosi hamon dolzarbligicha qolmoqda Talaba-yoshlarda huquqiy madaniyatni yanada yuksaltirish uchun ta'lim muassasalarida huquqiy ta'lim va tarbiyaning o'rni juda muhimdir. Shuni unutmash kerakki, huquqiy tarbiya huquqiy ta'limdan yoki faqat huquqshunoslikni o'qitishdangina iborat emas. Ta'lim muassasalarida huquqiy tarbiya tizimi va shakli talabayoshlarning huquqiy tarbiyasiga har tomonlama yondashishdan kelib chiqadi. Xuddi shu yerda huquqiy tarbiyaga elementar yondashishdan voz kechish zarurligini aytib o'tishimiz zarur. Hayotimizda uchrab turgan huquqiy voqea-hodisalarga yoshlarning o'zi jalb etilsa, yoshlarda faol fuqarolik pozitsiyasi shakllanadi. Masalan, qonun hujjatlari loyihalarini muhokama qilish, oliy ta'lim muassasalarida o'z huquq va majburiyatlarini to'liq bilish, ularga amal qilish, saylov ishlarini olib borish kabi tadbirlar ularda qonunga bo'lgan hurmatni tarbiyalashda yordam beradi. Huquqiy ong — bu shaxsda huquqiy bilim va tushunchalar asosida shakllanadigan, o'z huquq va burchlarini anglash, ularga amal qilish hamda huquqiy munosabatlarda ongli va faol ishtirok etish qobiliyatidir. U fuqaroning qonunlarga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo'lishi, huquqiy normalarni hayotda to'g'ri qo'llay olishi va huquqbuzarlikka nisbatan tanqidiy munosabatini ham qamrab oladi.

Huquqiy madaniyat — shaxsning huquqqa bo'lgan munosabati, qonunlarga sodiqlik va hurmat, shuningdek jamiyatda huquqiy qadriyatlarni asrash va targ'ib qilishga bo'lgan malaka va kayfiyatlar jihatidan ifodalanadi. Huquqiy madaniyatning yuqori darajasi mamlakatda huquqiy normalarning samarali amalga oshirilishiga zamin yaratadi, bu esa qonunbuzarliklar sonini kamaytirish va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. Agar yoshlarda huquqiy ong shakllanmagan bo'lsa, ularning huquqiy bilimlari ham yetarli darajada rivojlanmaydi. Bu esa qonunlarni anglashda va ularga amal qilishda muammolarni keltirib chiqaradi. Huquqiy savodxonlikning yetishmasligi qonunbuzarliklar sonining ortishiga, ijtimoiy munosabatlarda nizolar va ziddiyatlarning kuchayishiga olib kelishi mumkin. Shu bois, yosh avlod ongida huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantirish orqali ularda qonunga hurmat, huquqiy mas'uliyat va fuqarolik ongini mustahkamlash dolzarb ahamiyat kasb etadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR. Oliy ta'lim muassasalarida huquqiy ta'lim va tarbiya samarasini ma'lum ma'noda quyidagilar belgilaydi: – birinchidan, o'quv jarayoniga kompleks yondashish; – ikkinchidan, ijtimoiy fanlar asoslarini o'rganishda aniq bilimlarni mohirlik bilan ajrata bilish; – uchinchidan, oliy ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni rejalashtirishda huquqiy tarbiyaga qaratilgan tadbirlarning ta'sirchan usullarni aniqlab olish; – to'rtinchidan, talabalar turar joylaridagi ma'naviyat xonalarini yoshlarning huquqiy madaniyatini yuksaltirishga xizmat qiladigan gazeta va jurnallar bilan ta'minlash; – beshinchidan, hozirgi kunda yoshlarni avvalo ilmiy dunyoqarash, onglilik, yuksak axloq, vatanparvarlik va milliy qadriyat ruhida tarbiyalash hamda ularning ongi, axloqiy qarashlari va xattiharakatlarini shakllantirishga boshqa omillarning birgalikda ta'sir etishini taminlash muhimdir.

Huquqiy tarbiyaga kompleks yondashishni to'g'ri tushunish uchun uning umumiy va maxsus tomonlarini to'g'ri va aniq asoslab olmoq kerak. Bunda: – huquqiy tarbiyaning ijtimoiy ahamiyati; – huquqiy tarbiyaga kompleks yondashishni ta'minlovchi qoidalar; – huquqiy madaniyat va huquqiy ongni shakllantiruvchi usul va shakllar; – huquqiy tarbiya jarayoni samaradorligini oshirishdagi asosiy faktlarga alohida e'tibor berish lozim bo'ladi. O'quv

jamoalarida huquqiy tarbiyaga kompleks yondashish quyidagilarni o'z ichiga oladi: huquqiy tarbiyaning mafkuraviy, siyosiy, mehnat va axloqiy tarbiya bilan o'zaro aloqasi; yoshlarning turar joy va o'quv jamoasida huquqiy-tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan tadbirlarni rejalashtirish va o'tkazish; o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etishda huquqiy tarbiyani amalga oshirish va huquqbuzarlikning oldini olish bo'yicha ishlarni talaba-yoshlarni dam olish va yashash sharoitlarini yaxshilash orqali takomillashtirib borish; yoshlarda huquqiy ongni shakllantirishda ular o'rtasida namunaviy jamoat tartibi, otaliqqa olish, faolliklari uchun musobaqa va harakatlardan mohirona foydalanish; oilaning o'quv va mehnat jamoalarining huquqiy tarbiyaviy ta'sirini muvofiqlashtirib birgalikda faoliyat yuritish; huquqiy tarbiya jarayoni samaradorligini o'rganish, boyitish va ijobiy tajribalarni kengroq yoyish hamda ko'zlangan tadbirlarning bajarilishi yuzasidan nazorat o'rnatish. Har qanday tarbiyaviy ish tarbiyalanuvchining o'zining shaxsiy axloqiy ichki sharoitlari harakati bilan samaralidir. Huquqiy tarbiyada samaradorlik tushunchasiga to'xtaladigan bo'lsak, uni ijtimoiy mohiyatidan kelib chiqib quyidagicha asoslash mumkin: yoshlarning huquqiy tarbiyasi samaradorligi deganda, mavjud tarbiya vositalaridan unumli foydalangan holda, optimal muddatda va eng kam ma'naviy, moddiy va tashkiliy xarajatlar bilan yoshlarning huquqiy bilimlarni egallashlari, ularning e'tiqodi, asoslari va amaliy harakati ko'rsatmalari jamiyat talablari bilan muvofiqlashganligi tushuniladi. Huquqiy tarbiya samaradorligini oshirishning yana bir muhim tomoni shundaki, tarbiyachining o'zi zarur hajmdagi huquqiy bilimlar bilan qurollangan va yoshlarda huquqiy ongni shakllantirish, ularning huquqiy madaniyatini oshirish uslubiyatini yaxshi egallagan bo'lishi lozim. Yoshlar huquqni bilsa, tasavvur qilsa-yu, ammo huquqiy ko'rsatmalarni ijro etishga passiv munosabatda bo'lsa, bu holat yoshlarda faol fuqarolik pozitsiyasi shakllanmaganligini yaqqol ko'rsatadi [4]. Bundan tashqari, huquqiy tarbiya samaradorligini oshirish yo'llaridan keng foydalangan holda samaradorlik darajasini o'lchash va tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. Ma'lumki, ta'lim-tarbiyaning asosiy maqsadi – yoshlarda shaxs sifatida yuksak axloqiy fazilatlarini shakllantirishdan iboratdir. Axloq bo'lmasa inson ijtimoiy shaxs sifatida shakllanmaydi.

Yoshlar huquqiy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lsa, ular nafaqat o'z huquq va erkinliklarini to'g'ri anglaydi va himoya qiladi, balki jamiyatda qonuniylilikni mustahkamlash va huquqiy tartibotni ta'minlashda ham faol ishtirok etadi. Shu jihatdan, yosh avlod ongida huquqiy ong va madaniyatni shakllantirish — davlatning barqaror va izchil rivojlanishi, shuningdek, demokratik qadriyatlar asosida kelajak jamiyatni qurishda hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. Jumladan, ta'lim tizimida huquqiy fanlarni samarali joriy etish, o'quv dasturlariga huquqiy savodxonlikka oid mavzularni kiritish, huquqiy tarbiyaning samaradorligini oshiradi. Shu bilan birga, ommaviy axborot vositalari orqali huquqiy ma'rifatni keng targ'ib etish, jamoatchilik tashkilotlari va davlat idoralari tomonidan yoshlarga qaratilgan huquqiy tadbirlarni muntazam o'tkazish muhim o'rin tutadi. Yoshlarning huquqiy bilimlarini mustahkamlash, qonuniylikka munosabatini shakllantirish, huquqiy mas'uliyati va faol fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirish maqsadida ta'lim va tarbiya jarayonida amaliy yo'llardan foydalanish zarur [5]. Maktab va oliy ta'lim muassasalarida huquqiy seminarlar, debatlar, interaktiv treninglar hamda huquqiy ko'nikmalarni rivojlantiruvchi mashg'ulotlar tashkil etish orqali yosh avlodning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish mumkin. Ikkinchidan, huquqiy ongni rivojlantirishda ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarni samarali vosita sifatida qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, yoshlar uchun huquqiy mavzuda

tayyorlangan tahliliy maqolalar, qisqa metrajli videoroliklar, savol-javoblar shaklidagi interaktiv kontentlar orqali huquqiy bilim va tushunchalarni sodda va ta'sirli usulda yetkazish mumkin. Bunday vositalar yoshlarda qonunchilikka nisbatan qiziqish uyg'otadi va ularning huquqiy savodxonligini oshiradi. Uchinchidan, jamoat tashkilotlari hamda mas'ul davlat idoralari tomonidan yoshlarga mo'ljallangan huquqiy tarbiya dasturlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish muhim vazifalardan biridir. Masalan, "Huquqiy tarbiya haftaligi", "Fuqarolik bilimlari kuni" yoki "Interaktiv huquqiy mashg'ulotlar" kabi tadbirlar yoshlarda huquqiy ong va madaniyatni shakllantirishga xizmat qiladi. Bu kabi chora-tadbirlar huquqiy bilimni nazariy emas, balki amaliy nuqtayi nazardan o'zlashtirish imkonini yaratadi. Agar yoshlarning huquqiy madaniyati yetarli darajada shakllangan bo'lsa, ular o'z huquq va burchlarini anglab yetadi, qonunlarga amal qilishni shaxsiy mas'uliyat sifatida qabul qiladi va huquqiy munosabatlarda faol ishtirok etadi [6]. Bunday ongli munosabat jamiyatda tinchlik va barqarorlikni ta'minlash, ijtimoiy totuvlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Huquqiy madaniyat yoshlarda faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish, jamoat hayotida mas'uliyatli va tashabbuskor ishtirokchiga aylanishga asos yaratadi. Huquqiy madaniyatning jamiyatda keng rivojlanishi qonunbuzarlik holatlari, korrupsiya va boshqa huquqbuzarliklarning kamayishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Xususan, yoshlar o'rtasida huquqiy qadriyatlarning shakllanishi ularda qonunchilik normalarini anglash, huquqiy yondashuv orqali muammolarni hal etish ko'nikmasini rivojlantiradi. Bu esa huquqiy muammolarni faqat qonuniy vositalar orqali yechishga intilishni shakllantiradi va fuqarolarning huquqiy faolligini oshiradi. Bugungi globallashuv sharoitida davlatlar o'rtasida siyosiy, iqtisodiy va huquqiy aloqalarning kengayishi yosh avlodning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirishni strategik ahamiyatga molik vazifaga aylantirmoqda. Xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikdagi loyihalar, qonun ijodkorligidagi yangilanishlar va xorijiy tajribalarni milliy huquqiy tizimga moslash orqali yoshlar huquqiy bilimlari muntazam ravishda rivojlanib bormoqda. Bu jarayon nafaqat ichki barqarorlikni ta'minlash, balki xalqaro huquqiy maydonda faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir jamiyatning barqaror va farovon rivojlanishida yosh avlodning o'rni alohida ahamiyatga ega. Yoshlar — davlatning intellektual va siyosiy salohiyatini belgilaydigan asosiy omillardan biri sifatida qaraladi. Agar ularning huquqiy ongi va huquqiy madaniyati yetarli darajada shakllanmagan bo'lsa, demokratik jamiyatni barpo etish, qonun ustuvorligini ta'minlash va fuqarolik jamiyatini mustahkamlash jarayonida jiddiy to'siqlar yuzaga kelishi mumkin [7]. Bugungi kunda jamiyatda qonuniylik, inson huquqlarini hurmat qilish va huquqiy tartibotni ta'minlash nafaqat davlat organlari, balki har bir fuqaroning, ayniqsa yoshlarning huquqiy savodxonligiga chambarchas bog'liqdir. Shu bois, yoshlar ongida huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantirish masalasi zamonaviy taraqqiyot talablaridan biri sifatida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Yevropa Ittifoqi va boshqa xalqaro institutlar tomonidan yoshlar uchun huquqiy savodxonlikni oshirishga qaratilgan maxsus dasturlar amalga oshirilmoqda. Ushbu loyihalar orqali yosh avlodga inson huquqlari, demokratiya tamoyillari, faol fuqarolik munosabati hamda qonun ustuvorligining mohiyati haqida chuqur bilim va amaliy ko'nikmalar berish maqsad qilingan [8]. Bunday tashabbuslar global miqyosda yoshlarning huquqiy ongini shakllantirishga hamda jamiyatda faol va mas'uliyatli fuqaro sifatida kamol topishiga xizmat qilmoqda. Yoshlar ongida huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantirish faqatgina davlat idoralari yoki ta'lim muassasalarining zimmasidagi vazifa emas, balki butun jamiyatning har

bir a'zosi mas'ul bo'lgan umummilliy jarayondir [9]. Zero, huquqiy ong va madaniyatning yuksalishi yoshlarning fuqarolik ongini mustahkamlash, qonun ustuvorligini ta'minlash hamda demokratik jamiyat poydevorini mustahkamlashda muhim omildir. Yosh avlodning huquqiy savodxonligi va qonuniy munosabatlarga faol kirishishi orqali jamiyatda barqarorlik va adolatli boshqaruv tamoyillari qaror topadi. Shu bois, zamon talablaridan kelib chiqib, ta'lim-tarbiya tizimida huquqiy ma'rifiy ishlarni samarali tashkil etish va yoshlar o'rtasida huquqiy madaniyatni ommalashtirish dolzarb ahamiyat kasb etadi [10].

XULOSA. Xulosa sifatida ta'kidlash joizki, yoshlar ongida huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantirish — har qanday davlatning huquqiy barqarorligi va ijtimoiy taraqqiyotini ta'minlashda hal qiluvchi omillardan biridir. Bu yo'nalishda davlat va jamiyat institutlarining hamkorlikda olib borayotgan maqsadli faoliyati, ta'lim-tarbiya jarayonlarida huquqiy ma'rifatni kuchaytirish orqali yosh avlodni ongli, qonuniylikka sodiq va faol fuqaro sifatida tarbiyalash imkoni yaratiladi. Shuningdek, yoshlar vazifalarini ongli ravishda bajarishlari davlatning huquqiy-demokratik talablariga mos keladi. Ammo buni huquqiy madaniyatga erishmasdan, ya'ni qonunlarni bilmasdan va ularga izchil rioya qilmasdan turib amalga oshirish mumkin emas. Talaba-yoshlarning huquqiy madaniyatini yanada yuksaltirish va ularda faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishda oliy ta'lim muassasalaridagi ma'naviy-ma'rifiy ishlarni samarali tashkil qilish va professor-o'qituvchilar yillik murabbiylik rejalarini tuzishga alohida e'tibor berish lozimdir. Axborot soatlarida huquqiy tarbiyaga doir tadbirlar, davra suhbatlarini ko'proq tashkil qilish va ularni samarali hamda ta'sirchan o'tkazish maqsadga muvofiqdir. Bundan tashqari, talabalar va oliy ta'lim muassasalari o'rtasida huquqqa doir turli xil ko'rik-tanlovlar va maxsus ilmiy-amaliy anjumanlar o'tkazib turish hamda katta tanaffuslar paytida ta'lim muassasasining radiouzelida talaba-yoshlarning huquq va majburiyatlari haqida ma'lumotlar berib borilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev, Sh. M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza. 2016- yil 7- dekabr /Sh.M.Mirziyoyev. – Toshkent : "O'zbekiston", 2017. – 48 b.
2. O'zbek tilining izohli lug'ati. 80 000 dan ortiq so'z va so'z birikmasi. 5 jildli / O'zR FA A. Navoiy nomidagi Til va adabiyoti in-ti; A.Madvaliyev taxriri ostida; taxrir xay'ati E.Begmatov. - Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, [2006-2008].
3. Abdullayev, A.H. — "Huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantirish asoslari" (Universitet darsligi). Toshkent, 2018.
4. Saidov, B. "Huquqiy madaniyat va huquqiy ongni shakllantirish muammolari". Toshkent, 2017.
5. Mirzayev, Sh.M. "Fuqarolik jamiyati va huquqiy tarbiya". Toshkent, 2020. 6. Abdurahmonov H., "Huquqiy madaniyat va huquqiy ong": Toshkent, 2018. — O'zbekistonda huquqiy madaniyatni shakllantirish masalalari.
6. To'xtamo'minov I., Muhammadaliyev A., "Huquqshunoslik asoslari" darsligi: 2019 yil.
7. Hojiyev R.B va Norboyeva D.O. Yoshlar ijtimoiy faolligini rivojlantirish Konsepsiyalari. "Mug'allim ham uzliksiz bilimdendiro" (Nekis), 2021 №3(2), 4- 11-b.

8. Ikramov R.A., Xojiyev R.B. (2020). Vospitaniye garmonichno razvitogo pokoleniya yavlyayetsya prioritetom gosudarstvennoy molodejnoj politiki. Vestnik nauki i obrazovaniya. № 14 (92). Chast 3. S. 88-90.

9. Ходжиев Р.Б., Норбоева Д.О. (2021) Креативное мышление – важный фактор социального развития. Вестник науки и образования. № 10 (113). Част С. 76-79.

10. <https://parliament.gov.uz>

<http://library.ziyonet.uz/uz/book/108973>

<https://www.internauka.org/authors/zhumaev-rustam-ganievich>

<https://journalss.org/index.php/luch/496>.

